

ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON G‘OYASI**Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va
adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi**ANNOTATSIYA**

Hazrat Alisher Navoiy asarlarida hamisha ma’naviyat va ma’rifat ruhi ufurib turadi. Komil inson g‘oyalari ilgari suriladi. Navoiy o‘zining shoh asari “Xamsa”ning “Farhod va Shirin” dostonida ham shu kabi insoniy xislatlarni ilgari suradi. U Farhod obrazida insonga xos bo‘lgan eng ulug‘ fazilatlarni yoritib beradi. Farhod oliyjanob, mehnatsevar va vatanparvarlik ruhida ulg‘ayish bilan birga chin ma’nodagi inson sifatida tasvirlanadi.

KALIT SO‘ZLAR: komil inson, vatanparvarlik, insoniylik va mehnatsevarlik.

ANNOTATION

Hazrat Alisher Navoi’s works are always filled with the spirit of spirituality and enlightenment. Ideals of a perfect person are promoted. Navoi promotes similar human qualities in the epic “Farhad and Shirin” of his masterpiece “Khamsa”. He illuminates the greatest human qualities in the character of Farhad. Farhad is portrayed as a noble, hard-working and patriotic person who grew up in a spirit of patriotism.

KEY WORDS: perfect person, patriotism, humanity and hard work.

АННОТАЦИЯ

Произведения Хазрата Алишера Навои всегда наполнены духом одухотворенности и просвещения. Продвигаются идеалы идеального человека. Подобные человеческие качества Навои пропагандирует в эпосе “Фархад и Ширин” своего шедевра “Хамса”. Он освещает величайшие человеческие качества в характере Фархада. Фархад изображается благородным, трудолюбивым и патриотичным человеком, выросшим в духе патриотизма.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: совершенный человек, патриотизм, человечность и трудолюбие.

Inson kamoloti mavzusi sharq adabiyotining yetakchi mavzusidir. Biz, asosan, komil inson konsepsiyasini tasavvuf doirasida o‘rganishga odatlanganmiz. Aslida, komil inson mavzusi islomgacha bo‘lgan turli diniy-falsafiy ta’limotlarda keng

yoritilgan. Xususan, hinduviylikda barahmanlar ilmli, pokdomon, yuksak ma'naviyatli, komil insonlar, avliyo hisoblanganlar. Nasroniylik diniy manbalarida Ezgu inson Xudoga va insonlarga nafaqat do'stona munosabat bilan, balki jo'shqin hamda samimiy ishq bilan bog'langanligi ta'kidlanadi¹

Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni u yaratgan "Xamsa"ning 2-dostoni bo'lib, unda Farhod oddiy tosh yo'nar oshiq emas, balki xoqonning o'g'li, aniqrog'i, Xo'tan mamlakati podshosining qarilikda ko'rgan yakka-yu yagona farzandi bo'lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo'narlik, kasbini egallashga uringan. Farhod ishq o'tida sarmast obrazida ham juda go'zal tasvirlanadi. U ishq o'tida yonganidan turli mashaqqatlarga ham rozi bo'ladi va turli tilsimlarni yengib chiqishga kirishadi. Komillikning eng asosiy sharti qalbni nasf qutqusidan xalos etmoqdir. Shuning bilan birga kasb-hunar bilan band bo'lmoqlikdadir. Farhod ham aynan shu yo'ldan boradi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni markazida komil inson tarbiyasi turadi. Shariat ahkomiga tariqat rasmi rusumlari, pir muridlik an'anasi, solik odobi, poklanish, tavba tazarru, zikr-u samo - hamma hammasidan maqsad insonni komillikka yuksaltirish, ruhni yaxshilash, g'aybiyotning sir-u asrorini kashf etish. Alisher Navoiy Farhod timsolida insonni ruhiy, ma'naviy va jismoniy kamol toptirish va poklash ilmi bo'lgan futuvvat orqali poklaydi. Farhodning botinidagi barcha tuzatishxislatlarni nafs tushunchasiga bog'lab izohlaydi va unga qarshi jihad e'lon qiladi. Asarda temir odam, dev obrazlari nafs timsolidir. Navoiy uchun insonning birinchi narsa o'o'z nafsin biladi jilab olishi, uni mahy etishidir deb. Qanoat, saxovat va himmat bilan inson o'zining ilohiy tanqidni va ulug'ligini anglasa, eng yomon dushman nafsi tanqid ham angraydi. Navoiy ushbu dostonda aynan komillikka yetishishning bir yo'li futuvvat haqida Farhod obrazi orqali ko'rsatib beradi.

"Farhod va Shirin"ni biz ishq, muhabbat ruhida yozilgan noyob asarlar sirasiga krita olamiz. Dostonda Farhodning Shirin ishqini uchun, unga yetish uchun qilgan harakatlarida ko'plab insoniy fazilatlarni jumladan: insonparvarlik, tinchlik, do'stlik,

¹ Sirojiddinov, 2019: 9-14.

har bir ishga butun vujudi bilan yondashib tez o‘rganish, mehnatsevarlik, obodonchilikka harakat qilish kabi hislatlarni uchratamiz. Bu asar sevgi va muhabbatni tarannum etish bilan birligida chin ma’nodagi inson shaxsiyatini yortib bergen komillikka yetishish yulidagi qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich bosib o‘tish kerakligini ko‘rsatadi. Farhodni kuch-quvvat, qat’iyat, matonat, Shirin esa guzallik, latofat timsolida ko‘ramiz. Farhod orqali ilm olish, hunar egalashga, sabr toqat va insoniy fazilatlari orqali yetuklikka intilishni targ‘ib qilingan yoshlarni ayni shu xislatlar bilan oziqlanishi kerakligini takidlangan. Asarda shoir Farhodni voyaga yetguniga qadar parvarish qilib ilm-u hunarni mohirlik bilan uning shaxsiyatiga singdiradi shu ma’noda barcha imkon yoshlar qo‘lida ekanligini, harakatchan, izlanuvchan bo‘lish kerakligini yorqin misol sifatida ko‘rsatadi. Yoshlarni sport va ilmda, umuman olganda, barcha sohada ilg‘or bo‘lishga undaydi. Barcha davrda dunyo o‘z daho insonlarini ko‘rgan, bu asar yaratilgan vaqtida ham Xuroson o‘lkasida ilm-ma’rifat keng targ‘ib qilingan davr bo‘lgan. Shu sabdan ko‘rishimiz mumkinki, Farhodning shiori “O‘qib o‘tmak, uqib o‘tmak”, - deya ta’riflangan. Farhod ustozlaridan me’morlik, naqqoshlik, tosh yo‘nish hunarlarini ham mukammal tarzda o‘rganadi, bu bilan shoir nafaqat ilm, balki mohir hunar ham paytida asqotishini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Sharq adabiyotida Farhod qissasi*, T., 1985.
2. *Bertels Ye.E., Nizami i Fizuli*, M., 1962;
3. *Erkinov S, Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahdili*, T., 1971.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Farhod_va_Shirin
5. <https://azkurs.org/farxod-va-shirin.html>